



АКТУАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ

СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ

Выпуск 6(60)

Переяслав
2021



АКТУАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ

LX Международная научная конференция
26-27 июня 2021 г.

СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ

ВЫПУСК 6(60)

Переяслав

СОДЕРЖАНИЕ

СЕКЦИЯ: ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ

Raxmanova Sokhiba Janzakovna (Jizzakh, Uzbekistan) MEMORIAL COMPLEX AND MAUSOLEUM OF SAAD IBN ABU WAKKOS IN JIZZAKH	6
Zulunova Mushtariybegim Ermamat qizi, Alijonov Akbarjon Adxamjon oqli (Andijon, Uzbekistan) ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR.....	11

СЕКЦИЯ: ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ

Хўжаева Ҳилола (Ташкент, Узбекистан) ЎЗБЕК ЛАПАР ҚЎШИҚЛАРИ ВА УНИНГ ХУДУДИЙ ИЖРО УСЛУБЛАРИ.....	13
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------	----

СЕКЦИЯ: ПЕДАГОГИКА

Azimova Saodat Sherboyevna (G'uzor, Uzbekistan) BOLALAR BIZNING KELAJAGIMIZ.....	17
Berkinova Charos Islomovna (Jizzax, Uzbekistan) MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA MASHG'ULOTLARNI TO'G'RI TASHKIL ETISHDA TARBİYACHINING ROLI.....	20
Botirova Xulkar Alijonovna (Jizzax, Uzbekistan) MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBİYACHISINING PEDAGOGIK-KASBIY MAXORATINING MAZMUNI.....	24
Israilova Yulduz Muradillaevna (Jizzax, Uzbekistan) MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSINI SHAKLLANISHIDA OILA TARBİYASINING AXAMIYATI.....	27
Qoraxonova Mashhura Karimovna, Qayumova Umida Maxmatmurodovna (G'uzor, Uzbekistan) MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIGA ZAMONAVIY YONDASHUV.....	31
Ro'ziyeva M. Sh., Eshonqulova N. S., Abdullyeva Sh. N., Qulmirzayeva X. A. (Koson, O'zbekiston) PEDAGOGIK FAOLIYATDA PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA USLUBLARI	34
Umrzoqova S. X., Astanova N. J., Nurova Z. M. (Koson, O'zbekiston) TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TA'LIMNI TASHKIL QILISHNING SAMARALI USUL VA VOSITALARI.....	39
Xamrayeva E'zozxon Muzaffarovna (Jizzax, Uzbekistan) MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNING KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	44
Xoliqova Xolida Abdulatif qizi (Jizzax, O'zbekiston) TALABALARDA MA'NAVİY – AXLOQIY SIFATLARNI TARBİYALASHNING NAZARIY ASOSLARI	47
Xolmatov Javohir Yusupovich (Jizzax, O'zbekiston) TA'LIM JARAYONINI INTEGRATSIYALASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	51
Yarasheva Dilfuza Ravshanovna (Tashkent, Uzbekistan) USE EFFECTIVE METHODS AND TECHNIQUES IN READING SKILLS LESSONS.....	54

Berkinova Charos Islomovna
(Jizzax, Uzbekistan)

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA MASHG'ULOTLARNI TO'G'RI TASHKIL ETISHDA TARBIIYACHINING ROLI

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etishda tarbiyachining yetakchilik roli va uning ishini mazmuni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mashg'ulot, ta'lim va tarbiya vazifalari, bilim, malaka, ko'nikmalar, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyat, didaktika tamoyillari

Аннотация. В статье рассматривается роль руководства воспитателя в правильной организации уроков в дошкольной организации и содержание его работы.

Ключевые слова: обучение, учебно-воспитательные задачи, знания, умения, умения, развивающие и педагогические особенности, дидактические принципы.

Annotation. The article discusses the role of the educator's leadership in the proper organization of lessons in the preschool organization and the content of his work.

Keywords: training, educational and upbringing tasks, knowledge, skills, abilities, developmental and pedagogical features, didactic principles

Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, o'yin, mehnat, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutq o'stirish, savod o'rgatish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka hamda ko'nikma tizimini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar bolalar bog'chasi dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiy rivojlanishi va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika tamoyillari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada, u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi.

Tarbiyachi maktabgacha ta'lim tashkilotida asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g'oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo'lgan ijodiy munosabatiga bog'liq.

Bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati ko'proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

➤ Tarbiyachining o'ziga xos xususiyati – uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhimi – bolaning ruhiyatini, yosh va o'ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini bilishdir.

➤ Tarbiyachi o'z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi. Tarbiyachi har bir boladagi o'ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o'ziga xos xususiyatlarni (zararli bo'lsa) yo'qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo'yadi.

➤ Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo'lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo'ladi. CHunki bu davrdagi har bir ta'surot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Bolani tushuna bilish va uning ma'naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo'r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo'lish – fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib bo'lmaydi.

Mashg'ulotda tarbiyachi o'z ovozidan qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta'sir etishini pedagog bilishi zarur. Bolaga qattiqroq va qat'iy tapirish mumkin, ammo bunda so'z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta'sir etishi lozim. Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo'lgan jismoniy rivojlanishiga alohida e'tibor berishi lozim. Bolaning ko'p vaqt harakatsiz o'tirishi uning sog'lig'i uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi.

Bolaning ko'p harakatlarni o'tirib bajarishi ham gavda tuzilishining noto'g'pi o'sishiga olib keladi. Shuning uchun faoliyat turlarini almashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Yana bolaning normal rivojlanishi uchun har doim tinch, quvnoq muhitni tashkil etish lozim. Bolani: «Tezroq yuvininglar – nonushtaga kech qolyapmiz», «O'yinchoqni tezroq yirishtiringlar, sayrga yoki mashg'ulotga kech qolyapmiz» va hokazo deb shoshiltirish kerak emas.

Ta'lim berganda uni shunday tashkil etish kerakki, har bir bola faol ishlasin va har biri ijobiy natijaga erishsin. Bolalarning mashg'ulotda olgan bilim va malakalari boshqa faoliyat turlarida qo'llanilishi mumkin. Bolalar olgan bilimlarini qo'llay olishlari ularning yaxshi o'zlashtirib olganligidan dalolat beradi, ya'ni ular hech qanday qiyinchiliksiz bu bilimlardan foydalanishlari mumkin. Ta'limning amaliy ahamiyati ham ana shundan iboratdir. Agar bolalar etarlicha bilim va malakalarga ega bo'lsa, ular bilan xilma-xil mashg'ulotlar o'tkazish mumkin, bu mashg'ulotlarda bolalar mavjud bilimlardan ijodiy foydalanishlari: bemalol rasm chizishlari, biror narsani qurish yoki yasashlari, hikoya qilib berishlari mumkin. Bu mashg'ulotlar odatdagi mashg'ulotlardan boshqacharoq qilib tashkil etiladi: bolalar ixtiyoriga har xil materiallar beriladi va ularga rasm mavzusini o'zi belgilash, qurilishni o'zi o'ylab topish, hikoya tuzish imkoniyati yaratiladi. Bunday mashg'ulotlar dasturning ayrim bo'limlari bo'yicha ta'limning yunlovchi bosqichlarida o'tkaziladi.

Bolalar olgan bilimlaridan o'z o'yinlarida keng foydalanadilar: rasm chizish, qirqib olish, qurish-yasash sohasidagi malakalarni qo'llab zarur jihozlarni tayyorlaydilar, inshootlar barpo etadilar va hokazo. Olingan bilimlar turli xil o'yinlarning mazmunida aks ettiriladi.

Bolalar hayotini tashkil etishga qo'yiladigan talablar. Kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish. Bolalarning bog'chada 9-12 soat bo'lishi kun tartibida belgilab qo'yilgan. Bunda ertalabki qabul muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning bog'chadagi vaqti qiziqarli, sermazmun o'tishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, kun davomida bolalar hayotini tashkil etishdagi talablar quyidagicha:

1. Bolalarning hamma faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari uchun shartsharoitlar yaratish.

2. Har bir yosh guruhida faoliyat turlarini almashtirib borish va bolalarning harakat faolligini etarlicha ta'minlash.

3. Mashg'ulot, o'yin, mehnat, maishiy faoliyat o'rtasida bog'liqlik o'rnatish.

4. Bolalarning olgan bilim, malaka, ko'nikmalarini mustaqil faoliyatlarida qo'llay olishga o'rgatish va bolani faol bo'lishga, har doim biron narsa bilan mashg'ul bo'lishga o'rgatish.

5. Har bir bolani ijodiy qobiliyatlari, xohish va qiziqishlarini diqqat bilan ko'zatiib borish va uning yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish.

6. Bolalarning butun faoliyatiga arbiyachining rahbarligi, kun tartibiga qat'iy rioya qilish.

Mashg'ulot-tarbiyachining bolalarni kerakli bilim va malakalardan umumiy holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigienik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq-hisob, harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar bolalar bog'chasida ta'limni tashkil etish shaklidir. U maktabgacha tarbiya yoshidagi hamda bolalar uchun majburiydir, unda dastur mazmuni belgilab berilgan. Kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarini esa aniqlab mustahkamlaydi. Bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Demak, mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot bolalarda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Ayniqsa, bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga birgalikdagi faoliyatda bolalar bir- birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topag'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar ishiga zo'r berishni talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish-yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi, birga ishlash, yashashga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi sifatlar hosil qilinadi. Mashg'ulot paytida bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, hikoya qilinayotgan voqeadagi asosiy g'oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. - T.: Darslik. Iqtisod -moliya, 2011. 420 b.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Ta'lim muassasalari o'qituvchi-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2008. – 180 b.
3. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. *PsychologyandEducationJournal*, 58(2), 1339-1345.
4. Xasanova, G. (2020). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ПЕДАГОГИК МАЗМУНИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.

